
ILG'OR TERIMCHILAR MUNOSIB TAQDIRLANDI

Tumanimizda dehqonlarmizning yil bo'yi mashaqqatli mehnati mahsuli-paxta hosilini nes-nobud qilmasdan, o'z vaqtida, sifatli yig'ib-terib olish ishlari davom etmoqda.

Tumanda terim otryadlari tashkil etilib, terimchilarga zarur sharoit va qulayliklar yaratilmoqda. Xonariq MFYdagi "Durdon baraka" fermer xo'jaligida ayni kunlarda yig'im-terim qizg'in pallaga kirgan. Paxta hosilini yig'ib-terib olishda fermer xo'jaligi a'zolari bilan birgalikda uyushmagan aholi ham faol ishtirok etmoqda.

Bugun tuman hokimi A. Djurabayev hamda tuman prokurori A.Hudoyberganovlar ushbu fermer xo'jaligida bo'lib, bir guruh ilg'or terimchilarga qimmatbaho sovg'alarni topshirdilar. Terimchilarning maroqli xordiq chiqarishlari uchun konsert dasturi ham tashkil etildi

2022-09-17 18:54:34